

**«T A S D I Q L A Y M A N»**

**Navoiy viloyat adliya boshqarmasi boshlig‘i,**

**Xarid komissiyasining raisi**

A. Sarabekov

2021-yil 19-noyabr

**Navoiy shahar Navoiy ko‘chasi bo‘ylab adliya boshqarmasiga  
ma’muriy bino qurilish ob’ekti loyiha-smeta hujjatlariga  
qo‘srimcha va o‘zgartirish kiritish uchun eng yaxshi taklifni  
tanlash bo‘yicha**

**XARID QILISH HUJJATI**

Navoiy-2021 yil

## **MUNDARIJA**

I Bob.	Qatnashchiga ko‘rsatma.....	3
II Bob.	Tanlovning taklif shakllari.....	13
III Bob.	Yetkazib beriladigan mahsulotlarga texnik talablar.....	21
IV Bob.	Tijorat qismi.....	22
V Bob.	Shartnoma shakli .....	23

## I BOB. QATNASHCHIGA KO'RSATMA

### A. Umumiy ma'lumot

Tanlov predmeti  
Mazkur tanlov hujjatlarida ishlataladigan tushunchalar  
Xarid komissiyasining vazifalari  
Texnik va tijorat takliflarini baholash guruhining vazifalari  
Qatnashchiga tanlovda qatnashish uchun qo'yiladigan malaka talablari  
Tanlov doirasida hujjatlarning maxfiyligini ta'minlash

### B. Tanlov hujjatlari

Tanlov hujjatining tarkibi  
Tanlov hujjatlariga aniqlik kiritish  
Tanlov hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish

### D. Tanlov hujjatlarini tayyorlanishi

Tanlovda qatnashish xarajatlari  
Tanlovda qo'llaniladigan til  
Tanlov taklifini tashkil qiluvchi hujjatlar  
Taklif shakli va narx jadvali shakllari bo'yicha tushuntirish  
Muqobil takliflar  
Tanlov taklifini rasmiylashtirish va imzolash

### E. Tanlov taklifining topshirilishi va ochilishi

Tanlov takliflarini muhrlash va konvertlarni belgilash  
Tanlov takliflarini topshirishning oxirgi muddati  
Tanlov takliflarining ochilishi

### F. Tanlov takliflarini baholash va g'oliblarni aniqlash tartibi

Tanlov takliflarini baholash va g'oliblarni aniqlash  
Takliflarning mos kelmasligi

### G. Shartnomani rasmiylashtirish

Shartnomani rasmiylashtirish  
To'lov shartlari  
Shartnomani imzolash

## A. UMUMIY MA'LUMOTLAR

### 1. Tanlov premeti

Xarid komissiyasi o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonuni va Xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizom (ro'yxat raqami 3016, 26.05.2018 y.) asosan amalga oshiradi.

#### Tanlovnvi tashkil qilishning asosiy maqsadlari quyidagilar:

Eng yaxshi takliflarni tanlashni o'tkazish ochiq turda bo'lib, Navoiy viloyat adliya boshqarmasi budgetdan tashqari mablag'lari hisobidan Navoiy shahar Navoiy ko'chasi bo'ylab adliya boshqarmasiga ma'muriy bino qurilish ob'ekti loyiha-smeta hujjatlariiga qo'shimcha va o'zgartirish kiritishni amalga oshiruvchi tashkilotni aniqlash bo'yicha tanlov o'tkazish ko'zda tutilgan.

Tanlovga qo'yilgan tovarning (xizmatning, ishning) narxi **25 000 000 so'm**, qo'shimcha qiymat solig'i bilan.

Ishlar tanlov hujjatlarining tijorat qismida joylashgan talablariga binoan bajarilishi lozim.

### 2. Mazkur tanlov hujjatlarida ishlataladigan tushunchalar

Budgetdan tashqari mablag'lar hisobidan Navoiy shahar Navoiy ko'chasi bo'ylab adliya boshqarmasiga ma'muriy bino qurilish ob'ekti loyiha-smeta hujjatlariiga qo'shimcha va o'zgartirish kiritishni (keyingi o'rinda – loyiha-smeta hujjatlari) amalga oshirish bo'yicha eng yaxshi takliflarni tanlash (keyingi o'rnlarda – Tanlov) o'tkazishdan maqsad – mazkur Tanlov hujjatlari talablari asosida loyiha-smeta hujjatlariiga o'zgartirish kirituvchi tashkilotni aniqlash.

Tanlov o'tkazish tartibi – bir bosqichli.

**Buyurtmachi** – Navoiy viloyat adliya boshqarmasi;

Manzili: 210100, Navoiy viloyati, navoiy shahri, Navoiy ko'chasi;

Tanlovnvi tashkil etish va o'tkazish uchun mas'ul shaxs – Xarid komissiyasi kotibi Qulmurodov Afzal Akbarovich;

Tel.: (79) 220-79-29.

### 3. Xarid komissiyasining vazifalari:

- tanlov o'tkazish tartib-qoidalarini belgilaydi;
- belgilangan tartibda tanlovnvi o'tkazadi;
- tanlov talabgorlariga taalluqli barcha hujjatlarni taqdim qilish, muddatini uzaytirish to'g'risida qaror qabul qilish;
- tanlov bo'yicha kelib tushgan takliflarni ochish sanasini belgilash;
- takliflar bildirilgan konvertlarni ochadi, ularning tanlov hujjatlari bilan belgilangan talablarga (taqdim etilgan hujjatlarning to'liqligi, ularning rasmiylashtirilishi va hokazo) muvofiqligini tekshiradi;
- talabgorlar tomonidan taqdim etilgan takliflarini ko'rib chiqishda narxlarning sun'iy ravishda oshirilishini oldini olish va xolislikka hamda qonun hujjatlari talablariga qat'iy rioya qilish;
- zarur hollarda komissiya faoliyatiga mutaxassis xodimlar jalb etilishini nazarda tutish;
- g'olib deb topilgan talabgorlar bilan shartnoma imzolash bo'yicha taklif beradi.

**Tanlovnvi tashkilotchisi** - Ishchi organ. Uning vazifasiga quyidagilar kiradi:

- tanlov hujjatlari ishlab chiqilishini ta'minlaydi va ularni o'rnatilgan tartibda talabgorlarga taqdim etadi;
- tanlov o'tkazilishi to'g'risida respublika tovar xom ashyo birjasinng www.xarid.uz portalida, boshqarma rasmiy veb-saytiga va boshqa ommaviy axborot vositalariga e'lon beradi;
- tanlov takliflarini baholash mezonlari ishlab chiqilishini ta'minlaydi.

### 4. Texnik va tijorat takliflarni baholashda Xarid komissiyasining vazifalari:

- tanlovnvi texnik takliflarni o'rganadi, tahlil qiladi va ko'rib chiqadi;
- eng yaxshi texnik taklifni aniqlaydi;
- qatnashchilarning tanlovga taqdim etilgan moliyaviy hujjatlarini va narx takliflarini o'rganadi, tahlil qiladi va ko'rib chiqadi;
- eng yaxshi tanlov taklifini aniqlaydi, g'olibni aniqlaydi va qaror qabul qiladi.

**Qatnashchi** - mulkchilik shaklidan qat'iy nazar, tanlov talablarida ko'rsatilgan tovarlarni etkazib berish va xizmatlarni ko'rsatish bo'yicha tajribaga ega bo'lgan tashkilotlar.

Qatnashchi:

- taqdim etilgan ma'lumotlar va hujjatlarning haqiqiyligi va to'g'riliqi uchun javobgarlikni o'z zimmasiga oladi;
- faqat bitta taklifni taqdim etish huquqiga ega;
- taqdim etilgan taklifni takliflarni taqdim etish muddati tugamaguncha qaytarib olish yoki o'zgartirish huquqiga ega.

### 5. Qatnashchiga tanlovdan qatnashish uchun qo'yiladigan malaka talablari

Tanlov takliflarini tayyorlaydi va Xarid komissiyasiga taqdim etadi. Ularning faoliyatini va moliyaviy holatini baholash uchun zarur bo'lgan qo'shimcha axborotni taqdim etadi (Xarid komissiyasining so'roviga ko'ra).

5.1. Qatnashchi Xarid komissiyasiga (muhrlangan) va ichki muhrlangan konvertni **yo'llanma xat** bilan taqdim qilgan

bo'lishlari kerak. Konvertda talabgor nomi, manzili va Xarid komissiyasi manzili, nomi hamda ishtirok etayotgan lot raqami ko'rsatilgan bo'lib, quyidagi hujjatlar bo'lishi lozim:

- qatnashchining tashkiliy shakli (1-shakl);
  - qatnashchi to'g'risida umumiy ma'lumot (2-shakl);
  - qatnashchining tajribalari to'g'risida ma'lumot (3-shakl);
  - moliyaviy ahvoli (4-shakl);
  - mahsulotni tayyorlash va xizmatlarni ko'rsatish uchun moddiy resurslarning mayjudligi (5-shakl);
  - zakalat haqida kelishuvi va Buyurtmachining hisob raqamiga o'tkazilgan zakalat summa to'g'risida to'lov topshiriqnomasining asli, agar tanlov talablarida ko'rsatilgan bo'lsa (6-shakl);
  - mahsulotning va xizmatning texnik tafsif jadvali (7-shakl);
  - oxirgi uch yillik moliyaviy hisobot (hisobxona balansi va moliyaviy natijalar) nusxasi;
  - mahsulotni etkazib berish, xizmatlarni ko'rsatish jadvali asli (8-shakl);
  - tanlov taklifi asli (9-shakl);
- mahsulot, xizmat uchun taklif qilinayotgan narx asli (10-shakl);
- 5.2. Tanlov qatnashchilarini malakali tanlovi Xarid komissiyasi tomonidan amalga oshiriladi.
- Tanlov qatnashchilarini quyidagi hujjatlar yordamida malakali tanlanadi:
- korxona va tashkilotlarining kichik yoki yirik biznes sub'ektlariga tegishliligi to'g'risidaga ma'lumotnomasi;
  - talabgor bankrot holatida emasligini tasdiqlovchi ma'lumotnomasi;
  - talabgorning tugatilish yoki qayta tashkil etilish jarayonida emasligini tasdiqlovchi ma'lumotnomasi;
  - yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tganligini tasdiqlovchi guvohnomaning nusxasi;
  - tegishli vakolatli organ tomonidan berilgan tanlov talablarini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziyaning nusxasi;
  - davlat soliq inspeksiyasi va talabgor o'rtaida budget va budgetdan tashqari jamg'armalar oldidagi majburiyatlar bo'yicha qarzi yo'qligi to'g'risida ma'lumotnomasi;
  - xizmat ko'rsatuvchi bank tomonidan talabgorning hisob raqamlarida kartoteka (K-2) bo'yicha qarzi yo'qligi to'g'risida ma'lumotnomasi asli.

Davlat tashkilotlari tomonidan saralash bosqichiga taqdim etish uchun berilgan har bir ma'lumotnomada talabgorning STIRi ko'rsatilgan bo'lishi va tanlov e'lon qilingandan so'ng olingan bo'lishi shart.

5.3. Qatnashchi tanlov takliflarini tayyorlash va taqdim etish davomida sarflangan barcha moliyaviy xarajatlarni o'z hisobidan qoplaydi.

5.4. Tanlovda g'olib chiqqan taqdirda buyurtmachi bilan shartnoma tuzadi.

**Tanlov g'olibi** – takliflarni baholash yakunlari bo'yicha tanlovda eng ko'p ball to'plagan tanlov qatnashchisi.

**Zahiradagi qatnashchi** – tanlov g'olibidan keyingi o'rinda turgan ko'p ball to'plagan qatnashchi.

5.5. Tanlovga quyidagi qatnashchilar qo'yilmaydi:

- shartnomani bajarish uchun zarur texnikaviy, moliyaviy, moddiy, kadrlar resurslarining hamda boshqa resurslari mavjud bo'lmagan;

- shartnoma tuzish uchun qonuniy huquqqa ega bo'lmagan;

- tugatish yoki bankrotlik bosqichida bo'lgan;

- faoliyati sud yoki hakamlik sudida muhokamada ko'rib chiqilayotgan;

- davlat reestrida ro'yxatga olinganligiga olti oy muddatdan kam bo'lgan;

- insofsiz ijrochilarning yagona ro'yxatida bo'lgan;

- soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha budget va budgetdan tashqari fondlar oldida qarzdorligi mavjud bo'lgan;

- imtiyozli soliq rejimini ta'minlaydigan va/yoki moliyaviy operatsiyalarini (offshor zonalar) amalga oshirishda ma'lumotni oshkor qilish va taqdim etishni nazarda tutmaydigan hududlarda ro'yxatdan o'tgan va bank hisob raqamlariga ega bo'lgan;

- avval imzolangan shartnomalar bo'yicha kelishilgan majburiyatlarini o'z muddatida bajarmagan;

- tegishli tijorat va moliyaviy ko'rsatkichlar bo'yicha Komissiya talablariga javob bermaganda, ular to'g'risida tegishli qaror qabul qilinadi.

Buyurtmachi quyidagi hollarda ishtirokchini xarid tartib-taomillarida qatnashishdan chetlashtiradi, agar:

- ishtirokchi bevosita yoki bilvosita mijozning har qanday amaldagi yoki sobiq mansabdar shaxsini yoki xodimini yoki boshqa davlat organining har qanday shaklda mablag', ish taklifini yoki boshqa har qanday qimmatbaho buyumlarni yoki xizmatlarni taklif qilishi, berishi yoki berishga rozi bo'lganligi - yoki xaridorning davlat xaridlari jarayonida harakatlari yuzasidan qaror qabul qilishi yoki har qanday raqobat tartibini qo'llashi;

- ishtirokchi qonunga xilof ravishdaadolatsiz raqobat ustunligi yoki manfaatlar to'qnashuviga ega bo'lsa.

## 6. Tanlov doirasida hujjatlarning maxfiyligini ta'minlash

6.1. Tushgan takliflarning ko'rib chiqilishi, ularning Xarid komissiyasi a'zolari tomonidan baholanishi to'g'risidagi axborot maxfiy hisoblanadi hamda tanlov tartib-qoidasiga rasman aloqador bo'lmagan shaxslarga ma'lum qilinmaydi. Xarid komissiyasi a'zolari mazkur axborot oshkor qilinganligi uchun qonun hujjatlarda belgilangan tartibda javob beradilar.

## B. TANLOV HUJJATLARI

### 7. Tanlov hujjatining tarkibi

7.1. Tanlov qatnashchisi unga berilgan tanlov hujjatini va shu bilan birga barcha ko'rsatmalar, shakllar, shartlar va texnik tafsilotlarni to'liq o'rganib chiqishi shart.

7.2. Tanlov hujjatlarida ko'rsatib o'tilgan barcha talab qilingan ma'lumotlarni bermaslik yoki taklifning tanlov hujjatlari talablariga to'liq to'g'ri kelmasligi, taklifning qabul qilinmasligiga olib keladi.

### 8. Tanlov hujjatlariga aniqlik kiritish

8.1. Hujjatlarni taqdim etish muddati tamom bo'lgunga qadar Qatnashchi tanlov hujjatlariga qandaydir aniqlik kiritish uchun Xarid komissiyasiga yozma ravishda murojaat qilishlari mumkin:

8.2. Xarid komissiyasi talabgorning so'roviga ko'ra Tanlov takliflarini taqdim etishning so'nggi muddatidan kamida 3 kun oldin so'rov manbasini ko'rsatmagan holda tanlovnning barcha qatnashchilariga majburiy tartibda javob yuborib, tanlov hujjatlarining mohiyati yoki mazmuni bilan bog'liq savolga yozma javob berishi shart.

### 9. Tanlov hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish

9.1. Takliflarni taqdim etish muddati tamom bo'lgunga qadar kamida 3 kun oldin Xarid komissiyasining komissiya qaroriga muvofiq talabgorlarga ma'lum qilib, taklifga tuzatish kiritish uchun yetarli bo'lgan vaqt bergan holda, uning muddatini uzaytirib, tanlov hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishga haqlidir.

## D. TANLOV HUJJATLARINI TAYYORLANISHI

### 10. Tanlovda qatnashish xarajatlari

10.1. Tanlovda ishtirok etish va tanlov hujjatini tayyorlash bilan bog'liq bo'lgan barcha xarajatlar qatnashchining mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

10.2. Narx taklifida ko'rsatilgan narx tanlov taklifi narxi hisoblanadi.

10.3. Tanlov taklifi narxi milliy valyuta - so'mda to'lanishi kerak.

10.4. Mahsulot (xizmat, ish) narxi(taklif)ga barcha xarajatlar, ya'ni soliq hamda budget va budgetdan tashqari jamg'armalarga majburiy to'lovlar kiritiladi.

10.5. Qatnashchi tomonidan belgilangan narxlar mahsulotni etkazib berish (xizmatlarni ko'rsatish) majburiyatlarini oxiriga etkazilmagunga qadar o'zgartirilmaydi (Xarid komissiyasining narxlarni tushirish bo'yicha muzokaralar olib borish natijasida o'zgartirishlar kiritilishi mumkin).

10.6. Narxlarning oshishiga qarab o'zgartiriladigan narxlarni ko'zda tutuvchi tanlov takliflari istalgan bosqichda, tanlov talablariga javob bermaydi deb qaraladi va Xarid komissiyasi tomonidan ko'rib chiqilishi rad etiladi.

### 11. Tanlovda qo'llaniladigan til

11.1. Qatnashchilar tomonidan berilayotgan takliflar, Buyurtmachi va qatnashchi o'rtasidagi xatlar va barcha tegishli hujjatlar o'zbek tilida tayyorlanadi.

### 12. Tanlov taklifini tashkil qiluvchi hujjatlar

12.1. Tanlov takliflari bir asl nusxdan, faqat muhrlangan konvertda bo'lishi lozim. Xarid komissiyasi nomini va manzili ko'rsatilgan konvertda **5.1-bandda** keltirilgan hujjatlar, yo'llanma xat bilan birgalikda qabul qilinadi.

Konvertning yuza qismida ishtirokchining nomi, bog'lanish uchun telefon raqamlari, yuridik manzili va tanlov nomi va loti ko'rsatiladi.

Konvertda – mahsulotni etkazib berish jadvali, tanlov takliflari, mahsulot uchun taklif qilinayotgan narx ko'rsatiladi.

12.2. Xarid komissiyasi lozim bo'lganda Tanlov qatnashchilaridan taqdim etilgan Tanlov takliflarini tasdiqlash uchun qo'shimcha yoki boshqa ma'lumotlarni talab qilishi mumkin.

### 13. Taklif shakli va narx jadvali shakllari bo'yicha tushuntirish

13.1. Qatnashchi tanlov taklifini qat'iy ravishda mazkur tanlov hujjatining II bobidagi shakllar asosida berishi kerak.

13.2. Tanlov taklifi shakllaridagi barcha bo'sh grafalar tanlov hujjatlari talablari asosida to'ldirilishi zarur.

13.3. Qatnashchi taklif etilayotgan mahsulot (xizmat) uchun narx taklifini tanlov taklifi shakli asosida taqdim etishi kerak.

### 14. Muqobil takliflari

14.1. Afzalroq texnik (funksional) ko'rsatkichlarga ega bo'lgan mahsulot (xizmat) ko'rinishida berilgan muqobil takliflari bo'lishi mumkin. Bu holda narx ko'rsatkichlarini baholash paytida bunday takliflarga boshqa takliflarga nisbatan imtiyozlar berilmaydi.

14.2. Past texnik (funksional) ko'rsatkichlarga ega bo'lgan mahsulot (xizmat) ko'rinishida berilgan tanlov takliflari ko'rib chiqilmaydi.

### 15. Tanlov takliflarini rasmiylashtirish va imzolash

15.1. Tanlovda ishtirok etish uchun qatnashchi tanlov hujjatlarini imzolash vakolati bor o'zining vakilini tayinlashi

mumkin. Vakil tomonidan imzolash uchun qatnashchi o‘z vakiliga tegishli ishonch xati berishi lozim, ishonch xati tashkilotning vakolatga ega shaxsi tomonidan imzolangan va muhrlangan bo‘lishi kerak.

Tanlov ishtirokchilarining takliflari ip bilan tikilgan, raqamlangan, muhr qo‘yilgan va ishtirokchining vakolatli shaxsining imzosi bilan tasdiqlangan yoki takliflarning har bir varag‘i imzolangan holda taqdim etish tavsiya etiladi.

15.2. Berilgan takliflarda yozuv qatorlari orasiga qo‘sib yozish uchun joy tashlanishi yoki o‘chirish holatlari mavjud bo‘lsa, bu taklif o‘z kuchini yo‘qotadi va rad etiladi.

15.3. Tanlov qatnashchisining imzolanmagan, yelimlanmagan va muhrlanmagan konvertlari ko‘rib chiqilmaydi va Xarid komissiyasi tomonidan rad etiladi.

## **E. TANLOV TAKLIFINING TOPSHIRILISHI VA OCHILISHI**

### **16. Tanlov takliflarini muhrlash va konvertlarni belgilash**

16.1. Tanlov qatnashchisi tanlov takliflarini mazkur tanlov hujjatlari talablariga qat’iy rivoja qilgan holda muhrlashi kerak.

16.2. Qatnashchining tanlov taklifi, tanlov ochilgan kundan boshlab 30 (o‘ttiz) kun mobaynida o‘z kuchini saqlashi lozim.

16.3. Ayrim hollarda Xarid komissiyasi tanlov qatnashchisidan taklifning amalda bo‘lish muddatini uzaytirishni so‘rashi mumkin. Bu so‘rov va javob xat (telegramma) ko‘rinishida rasmiylashtiriladi.

### **17. Tanlov takliflarini topshirishning oxirgi muddati**

17.1. Qatnashchilarning tanlov takliflari respublika tovar xom ashyo birjasinng www.xarid.uz portalida ko‘rsatilgan muddatdan kechikmasdan Xarid komissiyasiga topshiriladi (shanba, yakshanba dam olish kuni).

17.2. Tanlov takliflarini topshirishning oxirgi muddati hech qanday sharoitda ko‘chirilmaydi (9.1-bandida eslatilgan tasodifyi holatlardan tashqari).

17.3. Tanlov takliflarini topshirishning oxirgi muddatiga 1 kun qolgunga qadar tanlov qatnashchisi o‘z takliflarini qaytarib olishi yoki taklifga o‘zgartirish kiritishi mumkin.

17.4. Tanlov qatnashchisi tomonidan tanlov hujjatlarda talab etilgan ma’lumotlar to‘liq taqdim etilmasligi yoki mazkur tanlov hujjatlari talablariga javob bermaydigan takliflar (konvertlarning yopishtirilmasdan berilishi, shakllarning noto‘g‘ri to‘ldirilishi, talab qilingan hujjatlarni taqdim etmaslik va h.k) ko‘rib chiqilmaydi va rad etiladi.

### **18. Tanlov takliflarining ochilishi**

18.1. Tanlov takliflari berishning belgilangan muddati tamom bo‘lgach belgilangan kundan 10 kundan ko‘p bo‘lмаган muddatda Xarid komissiyasi tanlov takliflari berilgan konvertni ochadi.

Takliflar bildirilgan konvertlar, qatnashchilar yoki ularning to‘laqonli vakillari ishtirokida ochiladi. Qatnashchilar vakillari qatnashmaganligi konvertning ochimasligiga yoki mazkur jarayonning qayta o‘tkazilishiga asos bo‘la olmaydi.

18.2. Konvert ochilgandan keyin tanlov qatnashchilari Xarid komissiyasi tomonidan e’tirof etilgan tashkilotlar sanab o‘tiladi, tanlov hujjatlarining talablarga mosligi va shartlarning to‘laqonli bajarilishi tekshiriladi.

18.3. Hujjatlar paketida tanlov hujjatlariga qo‘yiladigan talablar buzilganligi aniqlangan taqdirda, hujjatlar ularning mazmuni e’lon qilinmasdan qatnashchiga qaytariladi.

18.4. Xarid komissiyasi majlisining natijalari bayonnomaga bilan rasmiylashtiriladi. Bayonnomada tanlov qatnashchilari tomonidan e’tirof etilgan tashkilotlar sanab o‘tiladi. Shakl bo‘yicha taqdim etilmagan va tanlovga qo‘yilmagan takliflar, bayonnomada ular rad etilishining sabablari ko‘rsatilgan holda alohida sanab o‘tiladi.

18.5. Tanlov takliflari bildirilgan konvertlarni ochish va g‘olibni aniqlash to‘g‘risidagi bayonnomaga ommaviy axborot vositalarida e’lon qilinmaydi.

## F. TANLOV TAKLIFLARINI BAHOLASH VA G'OLIBLARNI ANIQLASH TARTIBI

### 19. Tanlov takliflarini baholash va g'oliblarni aniqlash

19.1. Tanlov takliflarini texnik, tashkiliy-moliyaviy va tijorat jihatdan baholash Xarid komissiyasi a'zolari tomonidan amalga oshiriladi.

19.2. Tanlov takliflarini baholash ikki bosqichdan iborat:

- texnik, tashkiliy-moliyaviy;
- tijorat.

19.2.1. Tanlov takliflarini baholash vaqtida Xarid komissiyasi tanlov qatnashchisidan uning tanlov takliflari borasida tushuntirishlar berishini so'rashi mumkin.

19.2.2. Qatnashchilarning tijorat takliflarini barcha uchun teng shartlar asosida o'tkazish maqsadida ularning tanlov takliflarini baholashda, sifatli mahsulot yetkazib berishdan (xizmat ko'rsatishdan, ish bajarishdan) iborat bo'lgan tanlov takliflari bo'yicha qonunchilik asosida qo'shimcha qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilari tomonidan soliq summasi kiritib hisob qilinadi.

19.3. Baholar 1-2 va 3-jadvallarga asoslangan holdagi 4-jadval umumlashtiruvchi, ya'ni 100 ballik shkala bo'yicha qo'yiladi.

19.4. Tanlov takliflarini ularning texnik amalga oshuvchanligiga nisbatan baholash Tanlov takliflarini texnik va tashkiliy-moliyaviy baholash mezonlarga asosan amalga oshiriladi (1-jadval).

19.5. 1, 2, 3, 4, 6, 7-shakllardan yoki 5.2 bandda ko'rsatilgan hujjatlardan birortasi mavjud bo'lmasa konvert qaytariladi.

19.6. Tanlov hujjatining 5-shakli mavjud bo'lmasa, bahosi nolga teng deb topiladi.

19.7. Tanlov qatnashchilarining takliflarini moliyaviy baholash, tijorat takliflarni baholash mezoni asosida aniqlanadi (3-jadval).

19.8. Tanlov takliflarini qarab chiqish muddati 10 kundan oshmaydi.

19.9. Eng ko'p ball to'plagan qatnashchi g'olib deb hisoblanadi.

19.10. Tanlov hujjatlarining 8, 9 va 10-shakllardan biri mavjud bo'lmasa, taklif baholanmaydi.

19.11. Yakun chiqarish va tanloving g'olib to'g'risidagi qaror Xarid komissiyasi tomonidan qabul qilinadi. G'olibni tanlashda Xarid komissiyasi a'zolarining yakka tartibdagi xulosasiga asoslaniladi. Qaror Xarid komissiyasi a'zolari umumiyl sonining oddiy, ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Ovozlar teng bo'lib qolgan taqdirda, Xarid komissiyasi raisining ovozi hal qiluvchi ovoz hisoblanadi.

19.12. Xarid komissiyasi tanlov hujjatlari shartlariga mos kelmaydigan har qanday tanlov takliflarini qabul qilish yoki rad etish huquqini o'zida olib qoladi.

19.13. Xarid komissiyasining so'rovlariga javob bera olmaydigan qatnashchilar tomonidan taqdim etilgan (berilgan) har qanday tushuntirishlar ko'rib chiqilmaydi.

19.14. Xarid komissiyasining yakuniy bayonnomasida g'olib va zahiradagi qatnashchilar, Xarid komissiyasi xulosasi, qatnashchilarning tanlov takliflari yig'ma jadvali va g'olib bilan shartnoma imzolashning mo'ljallanayotgan muddatlarini to'g'risidagi axborot mavjud bo'ladi.

Bayonnomaga yig'ilishda ishtiroy etgan a'zolar tomonidan imzolanishi va Xarid komissiyasi raisi tomonidan tasdiqlanishi kerak.

19.15. Tanlov tashkilotchisi tanlov g'olibiga tanlov yakunlangandan keyin uch kundan kechikmay yozma bildirishnomasi yuboradi va yakunlarini Respublika tovar-xom ashyo birjasining [www.xarid.uz](http://www.xarid.uz) maxsus portalida e'lon qiladi.

#### 20. Takliflarning mos kelmasligi

20.1. Tanlov hujjatlarini tekshirish chog'ida aniqlangan arifmetik xatolar mavjud bo'lgan taqdirda Xarid komissiyasi: qatnashchiga tanlov taklifiga tuzatish kiritish imkoniyatini berishi; takliflarni baholashda, tovar (xizmat, ish) narxi bilan birlik narxi va sonini ko'paytirish natijasida olingen yakuniy narx o'rtasida nomuvofiqlik mavjud bo'lsa, tovar (xizmat, ish) narxi ustunlik qiladigan, umumiyl narxga tuzatish kiritiladigan qaror qabul qilishi mumkin. Agar so'zlar bilan yozilgan summa (narx) bilan raqamda ko'rsatilgan summa (narx) o'rtasida nomuvofiqlik mavjud bo'lsa, u holda so'zlar bilan yozilgan summa (narx) ustunlik qiladi.

20.2. Agarda qatnashchi xatolarni to'g'rilashdan bosh tortsa, uning tanlov taklifi Xarid komissiyasining qarori bilan chetlashtiriladi.

20.3. Tanlovda ishtiroy etish uchun qatnashchi huquqi boshqa yuridik shaxsga o'tkazilishiga yo'l qo'yilmaydi.

20.4. Tanlov quyidagi hollarda bo'lib o'tmagan deb e'lon qilinadi:

tegishli lot bo'yicha tanlov takliflarini taqdim etishning eng oxirgi muddatigacha taklif tushmasa yoki faqat bitta taklif tushsa;

barcha tanlov takliflari tanlov hujjatlariga qo'yiladigan talablarga muvofiq bo'lmasa;

barcha tanlov takliflarida tanlov hujjatlar shartlari bilan talab qilinadigan hujjatlar mavjud bo'lmasa;

barcha qatnashchilarining taklif etgan narxlari tovarning boshlang'ich qiymatidan ancha yuqori bo'lsa.

20.5 Tanloving bo'lib o'tmagan, deb e'lon qilinishi tanlov qatnashchilaridan biron-birining mulkiy yoki boshqa javobgarligiga olib kelmaydi.

**Lot raqami****Qatnashchining texnik va tashkiliy-moliyaviy taklifini  
baholash mezonlari**

<b>Nº</b>	<b>Baholash parametrlarining nomlanishi</b>	<b>Ko'rsatkichlar</b>	<b>Ball</b>	<b>Ishtirokchining nomi</b>
			<b>Umumiy ball 40 ball</b>	
<b>Tanlov (tender) qatnashchilarining nomlari</b>				
<b>I. Qatnashchilarning tashkiliy shakli (5 ball)</b>				
1.	Korxonaning tashkil etilganligi	7 yildan ortiq	5	
		5 yildan 7 yilgacha	3	
		5 yildan kam	2	
<b>II. Qatnashchilar to'g'risida umumiy ma'lumot (8 ball)</b>				
1*	Umumiy ishchilar soni 20 nafardan	ortiq	3	
		kam	2	
2.	Mutaxassis xodimlarning ish stoji	7 yil va undan ko'p	5	
		5 yildan 7 yilgacha	4	
		3 yildan 5 yilgacha	3	
		2 yildan 3 yilgacha	2	
		2 yildan kam	1	
<b>III. So'ngi uch yil davomida ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ko'rsatilgan xizmatlar) umumiy summasi (9 ball)</b>				
1.	Umumiy ishlab chiqarilgan mahsulot aylanma mablag' hajmi (so'mdan ortiq)	3 000 000 000 gacha	4	
		2 000 000 000 gacha	3	
		1 000 000 000 gacha	2	
		500 000 000 gacha	1	
		500 000 000dan kam	0	
2.	Xaridorlar tomonidan mahsulot to'g'risida bildirgan munosabatlар	ijobiy xulosalarning 5 ta va undan ortiqligi	3	
		ijobiy xulosalarning 3 ta va 5 tagacha mavjudligi	2	
		ijobiy xulosalarning 2 tagacha mavjudligi	1	
		ijobiy xulosalarning mavjud emasligi	0	
3.	Tanlovga/Tanlovga qo'yilgan o'xshash mahsulotlarni (xizmatlar) 50 % dan	ko'p	2	
		kam	1	
<b>IV. Qatnashchilarning moliyaviy ahvoli (9 ball)</b>				
1*	O'tgan yil davomidagi aktivlari 700 mln. so'mdan	ko'p	4	
		ko'p	3	
		ko'p	2	
		ko'p	1	
		kam	0	
2	Kreditor qarzdorligi (forma K-2)	bor	0	
		yo'q	3	
3.	So'nggi uch yil davomida o'rtacha moliyaviy foyda 400 mln. so'mdan	ortiq	2	
		ortiq	1	
	So'nggi uch yil davomida o'rtacha moliyaviy foyda 100 mln. so'mdan	kam	0	

**V. Taklif qilinayotgan mahsulotni tayyorlash uchun moddiy resurslarning mavjudligi haqida ma'lumot (3 ball)**

1.	Omborda mavjud mahsulot hajmi:	100 %dan ko'p	3		
		50 %dan ko'p	2		
		25 %dan ko'p	1		
		25 %dan kam	0		

**VI. Mahsulotni yetkazib berish (6 ball)**

1.	Mahsulotni yetkazib berish muddati	muddatidan oldin	6		
		o'z muddatida	3		
		muddatidan keyin	0		

**Umumiy ballar:**

**Izoh:** mazkur jadval Xarid komissiyasining har bir a'zosi tomonidan siyohli ruchkada to'ldiriladi va imzolanadi.

\* faqat bitta ko'rsatkich baholanadi/

2-jadval

**Lot raqami**

**Tanlov qatnashchilarining texnik va tashkiliy-moliyaviy takliflarini baxolash jadvali**

№	Qatnashchilarning nomlanishi	I	II	III	IV	V	VI	Umumiy ball
		Maks. 5 ball	Maks. 8 ball	Maks. 9 ball	Maks. 9 ball	Maks. 3 ball	Maks. 6 ball	Maks. 40 ball
1								
2.								

3-jadval

**Lot raqami**

**Tanlov qatnashchisining tijorat takliflarini baholash mezoni**

№	Nomlar bo'yicha baholanish Tanlov (tender) qatnashchilari	Ballar	
		Umumi y ball	
<b>I. Taklif qilingan narx (60 balli)</b>			
1.	Qatnashchi taklif qilgan eng kam narx	60	
2	Qatnashchi taklif qilgan eng ko'p narx	40	
3.	Taklif qilingan eng ko'p va eng kam narxlarga ko'shimcha aniqlik kiritish ballari	60-40	
<b>II. Birinchi konvert bo'yicha ballar yig'indisi (40 balli)</b>			40

**UMUMIY BAHOLASH JADVALI**  
**№ lot bo'yicha tanlov qatnashchilarining takliflari**

№	Qatnashchining nomlanishi	Narx bo'yicha ikkinchi kovert bali	Birinchi konvertning bali	Umumiy ball
		Maks. 60 ball	Maks. 40 ball	Maks. 100 ball
1				
2				

*Izox: Qatnashchilarning texnik va tashkiliy-moliyaviy taklifini baholash mezonlari yakunlari yagona nussada baholanadi va barcha xarid komissiyasi a'zolari tomonidan imzolanadi.*

## **G. SHARTNOMANI RASMIYLASHTIRISH**

### **21. Shartnomani rasmiylashtirish**

21.1. Buyurtmachi va tanlov g'oliblari o'rtasidagi shartnoma tanlov g'oliblari to'g'risida respublika tovar-xom ashyo birjasinng [www.dxarid.uzex.uz](http://www.dxarid.uzex.uz) maxsus portalida e'lon qilingan kundan boshlab uch kun muddat ichida tuziladi.

21.2. Agar Tanlov g'olib shartnoma tuzishni rad etsa yoki belgilangan muddatda shartnomani bajarish uchun kafolat bermasa, u holda Buyurtmachi Xarid komissiyasi qaroriga muvofiq keyingi eng ko'p ballga ega bo'lgan zaxiradagi qatnashchini tanlov g'olib deb e'tirof etishi yoki takroriy tanlov o'tkazishni tayinlashi mumkin. Bunda zaxiradagi g'olib g'olib tomonidan taklif etilgan narx bo'yicha (bundan zaxiradagi g'olib taklif etgan narx g'olib tomonidan taklif etilgan narxdan past bo'lgan hollar mustasno) shartnoma tuzishi yoki shartnoma tuzishni rad etishi mumkin.

### **22. To'lov shartlari**

22.1. To'lov shartlari imzolanadigan shartnoma talablari asosida qat'iy amalga oshiriladi.

22.2. Tanlov qatnashchilari tomonidan tavsiya etilgan barcha boshqa to'lovlar va to'lov shakllari qabul qilinmaydi.

### **23. Shartnomani imzolash**

23.1. G'olib qatnashchi 3 (uch) kun muddat ichida Buyurtmachi bilan shartnoma imzolashi shart.

23.2. Tanlov g'olibining, tanlov hujjatlari ko'zda tutilgan taqdirda Buyurtmachi hisob raqamiga o'tkazilgan zakalat summasi buyurtmani tugatish muddatigacha qoldirilishi shart.

23.3. G'olib deb topilgan qatnashchi shartnomani bajarish kafolatini muddatda bera olmasa keyingi eng ko'p ball to'plagan zaxiradagi qatnashchi bilan shartnoma imzolanadi.

23.4. G'olib deb topilgan qatnashchi shartnomani bajarish kafolatini bera olmasa yoki shartnoma tuzishdan bosh tortsa, u holda uning taklif kafolati musodara qilinadi va keyingi eng ko'p ball to'plagan qatnashchi bilan shartnoma imzolanadi.

23.5. Tanlov g'olib miqdor, sifat hamda texnik ko'rsatkichlari bo'yicha shartnoma talablarini bajarmasa qonun doirasida (yoki shartnoma talablariga asosan) javobgarlikka tortiladi.

## II BOB. Tanlov taklif shakllari

1-shakl

№ \_\_\_\_\_-lot

### Tanlov qatnashchisining tashkiliy tuzilmasi

Tanlov qatnashchisining tashkillashtirish bo'yicha ishlab chiqarish tuzilmasini taqdim eting: maydoni, tovar etkazib berish (xizmat ko'rsatish, ish bajarish) bo'yicha tashkiliy tuzilmasi, manzili va mulkchilik shakli (xususiy yoki ijara olingan) ko'rsatilgan holda.

### ILOVALARNING BARCHA BETLARI TOPSHIRILAYOTGANDA TANLOV SAVDOSI QATNASHCHILARI TOMONIDAN IMZOLANGAN VA MUHRLANGAN BO'LISHI SHART.

2-shakl

№ \_\_\_\_\_-lot

### (Qatnashchining firma blankasida)

№ \_\_\_\_\_ va \_\_\_\_\_ sana

### Qatnashchi to'g'risida umumiy ma'lumot shakli

Tanlov savdolari ishtirokchisining nomi: \_\_\_\_\_

Manzili va telefon raqami: \_\_\_\_\_

Faks: \_\_\_\_\_

Yuridik maqomi: \_\_\_\_\_

Tashkil etilgan joyi va sanasi: \_\_\_\_\_

Faoliyat turlari bo'yicha ixtisoslashuvi: \_\_\_\_\_

Ofisi joylashgan joyi va O'zbekistondagi filiallari: \_\_\_\_\_

Doimiy va vaqtinchalik ishlovchi xodimlari umumiy soni, jumladan:

Doimiy ishlovchi xodimlar (jami): \_\_\_\_\_

Vaqtinchalik ishlovchi xodimlar (jami): \_\_\_\_\_

Kamida 10 yillik ish tajribasiga ega bo'lgan xodimlar soni, jumladan:

Doimiy ishlovchi xodimlar: \_\_\_\_\_

Vaqtinchalik ishlovchi xodimlar: \_\_\_\_\_

Tanlov qatnashchisi korxonasingning tashkiliy tuzilmasi, jumladan:

- korxonaning tashkiliy tuzilmasi [filiallari, hududiy bo'linmalari, ishlab chiqarish maydonlari va boshqa shaxobchalarji]

- ishlab chiqarish joylari mavjudligi (jami  $m^2$ ) [xususiy yoki ijara];

- omborxona joylari mavjudligi (jami  $m^2$ ) [xususiy yoki ijara];

- ishlab chiqarish uskunalarji

№	Texnikasi nomi	Soni	Ishlab chiqarilgan sanasi	Sotib olingan sana
---	----------------	------	---------------------------	--------------------

Qatnashchi nomi: **[Qatnashchining to'liq nomini ko'rsating]**

Taklifga imzo chekvuchi lavozimi: **[Taklifga imzo qo'ygan shaxsning lavozimini ko'rsating]**

Imzo: **[Yuqorida nomi va lavozimi ko'rsatilgan shaxs imzosini qo'ying]**

Ushbu taklif **[Qatnashchining to'liq nomini ko'rsating]** ko'rsatmasi va nomidan tegishli vakolat bilan imzolandi.

Sana: **[taklifga imzo qo'yilgan sanani ko'rsating]**

### ILOVALARNING BARCHA BETLARI TOPSHIRILAYOTGANDA TANLOV SAVDOSI QATNASHCHILARI TOMONIDAN IMZOLANGAN VA MUHRLANGAN BO'LISHI SHART.

№ \_\_\_\_ -lot

**Qatnashchining tajribalari to'g'risida ma'lumot**

Tanlovga qo'yilgan mahsulotlarga (xizmatlarga, ishlarga) o'xshash maxsulotlarni (xizmatlarni, ishlarni) oxirgi 3 yil davomida ishlab chiqarishi (xizmat ko'rsatish, ishlarni bajarish) to'g'risida ma'lumot

(ming. so'm)

<b>№</b>	<b>Mahsulot (xizmat) nomi</b>	<b>SHartnomma summasi</b>	<b>Mahsulot (xizmat) turi</b>	<b>Buyurtmachi</b>
1.				
2.				

Ishtirokchi nomi: **[Qatnashchining to'liq nomini ko'rsating]**Taklifga imzo chekuvchi lavozimi: **[Taklifga imzo qo'ygan shaxsning lavozimini ko'rsating]**Imzo: **[Yuqorida nomi va lavozimi ko'rsatilgan shaxs imzosini qo'ying]**Ushbu taklif **[Qatnashchining to'liq nomini ko'rsating]** ko'rsatmasi va nomidan tegishli vakolat bilan imzolandi.Sana: **[taklifga imzo qo'yilgan sanani ko'rsating]**

ILOVALARNING BARCHA BETLARI TOPSHIRILAYOTGANDA TANLOV SAVDOSI QATNASHCHILARI  
TOMONIDAN IMZOLANGAN VA MUHRLANGAN BO'LISHI SHART.

№ \_\_\_\_ -lot

**Tanlov qatnashchisining moliyaviy ahvoli**

(so'ngi 3 yillik buxgalteriya balansi va moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot nusxalari 1- va 2-shakl)

Tanlov qatnashchisining nomi:

(ming. so'mda)

AKTIV				PASSIV			
Uzoq muddatli aktivlar				Umumi vositalar zaxirasi			
Asosiy vositalar				Nizom kapitali			
Ishlab chiqarish fondlari shuning ichida				Bo'linmagan kirim			
Qoldiq narx				Majburiyatlar			
Kapital mablag'lari				Qarzlar			
Tugallanmagan ishlab-chiqarish				Kreditor qarzdorlik			
Shu kundagi aktivlar				Vaqti tugallangan qarzdorlik			
Aylanma mablag'lar				Byudjet mablag'lari hisobidan qarzdorlik			
Shulardan ishlab chiqarish zaxirasi				Ish haqi to'lovi bo'yicha qarzdorlik.			
Debitor qarzdorligi							
Vaqti tugallangan qarzdorlik							
Umumi aktiv balans bo'yicha				Umumi passiv balans bo'yicha			

**MOLIYAVIY NATIJA (ming. so'mda)**

Nomlanishi				Nomlanishi			
1. Ishlab chiqarilgan tovarlar bo'yicha foyda				8. Sof foyda			
2. Ishlab chiqarilgan				Asosiy faoliyatidan foyda			

mollarning soʻf foydasi						
3. Ishlab chiqarilgan mollarning tannarxi				Umum faoliyatidan	xoʻjalik	
4. Mamuriy xarajatlar				9.	Asosiy daromadi	
5. Boshqa sarf-xarajatlar				10.	Umum faoliyat daromadi	xoʻjalik
6. Soliq solinmagan holdagi foyda				11.	CHiqim Asosiy faoliyatdagi chiqim	
7. Daromad soligʻi				Umum faoliyatidagi chiqim	xoʻjalik	

Balans boʻyicha foyda \_\_\_\_\_

3 yil ichida soliq toʻlamasligi yoki bankrotlik masalalari boʻyicha sudlanmaganligi

Rahbar \_\_\_\_\_ Bosh hisobchi \_\_\_\_\_

Sana: « \_\_\_\_ » 20 y.

M.P.

**Izoh:** Ishchi organ tanlovga qoʻyiladigan oʻxshash mahsulotlarni yetkazib berish (xizmatlarni koʻrsatish, ishlarni bajarish) toʻgʼrisida maʼlumotlarni soʼraganda, ular maʼlumot uchun qabul qilinadi va baholanmaydi.

#### ILOVALARNING BARCHA BETLARI TOPSHIRILAYOTGANDA TANLOV SAVDOSI QATNASHCHILARI TOMONIDAN IMZOLANGAN VA MUHRLANGAN BOʼLISHI SHART.

5-shakl

№ \_\_\_\_ -lot

#### **Taklif qilinayotgan mahsulotni tayyorlash (xizmatlarni koʻrsatish, ishlarni bajarish) uchun moddiy resurslarning mavjudligi haqida maʼlumot**

Tanlov qatnashchisining nomi:

Joylashgan joy:

Omchorxonaning joylashgan joyi:

t/r	Mahsulot nomi	Oʼlchov birligi	Soni
1.			
2.			
3.			
4.			
5.			
6.			

Izoh:

Qatnashchi nomi: [Qatnashchining toʼliq nomini koʻrsating]

Taklifga imzo chekuvchining lavozimi: [Taklifga imzo qoʼygan shaxsning lavozimini koʻrsating]

Imzo: [Yuqorida nomi va lavozimi koʻrsatilgan shaxs imzosini qoʼying]

Ushbu taklif [Qatnashchining toʼliq nomini koʻrsating] koʻrsatmasi va nomidan tegishli vakolat bilan imzolandi.

Sana: [taklifga imzo qoʼyilgan sanani koʻrsating]

#### ILOVALARNING BARCHA BETLARI TOPSHIRILAYOTGANDA TANLOV SAVDOSI QATNASHCHILARI TOMONIDAN IMZOLANGAN VA MUHRLANGAN BOʼLISHI SHART.

**ZAKALAT HAQIDA KELISHUV (tanlav hujjatlarida ko'zda tutilganda) № \_\_\_\_\_**

(№ \_\_\_\_\_ lot)

Navoiy

« \_\_\_\_ » 20 y.

shaxsida

asosida

ish

yurituvchi

(yuridik shaxs nomi)

bundan buyon "Talabgor" deb nomlanuvchi bir tomondan va  
 shaxsida Nizom asosida ish yurituvchi Navoiy viloyat adliya boshqarmasi  
 bundan buyon "Buyurtmachi" deb nomlanuvchi ikkinchi tomondan quyidagilar to'g'risida ushbu Kelishuvni tuzdilar.

**1. Kelishuv predmeti**

1.1. Talabgor (\_\_\_\_\_ Tanlovda ishtirok etish uchun \_\_\_\_\_) so'm miqdoridagi pul mablag'ini Buyurtmachining hisob raqamiga o'tkazadi.

1.2. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 311-moddasi va xom ashyolar, materiallar, butlovchi buyumlar va uskulalarni xarid qilish bo'yicha tanlovi savdolarni o'tkazish to'g'risidagi nizomga ko'ra Talabgor tomonidan kiritilgan pul mablag'lari – zakalat va shu bilan birga shartnoma tuzilganligining isboti hisoblanadi va uni savdo G'olib deb topilganda ushbu shartnoma ijrosining ta'minlanishidan iborat bo'ladi.

**2. Zakalat pulini kiritish tartibi va muddatlari**

2.1. Pul mablag'lari respublika tovar-xom ashyo birjasinng www.xarid.uz portalida chop etiluvchi tanlov to'g'risidagi axborotlarda ko'rsatilgan tanlov savdosida ishtirok etish uchun buyurtmalar qabul qilish muddatining oxirgi kuniga qadar Talabgor tomonidan Buyurtmachining hisob raqamiga o'tkazilgan bo'lishi zarur.

Zakalat summasi qismlarga bo'lib kiritiladigan bo'lsa, zakalat summasining barcha to'liq summasi Buyurtmachining hisob raqamiga o'tkazilgan vaqtidan boshlab kiritilgan hisoblanadi.

Buyurtmachi hisob raqamidan beriladigan (yoki olinadigan) zakalat kiritilganligi haqidagi ko'chirma-dalolatnomaga zakalat pulining Buyurtmachi hisob raqamiga kiritilganligini tasdiqlovchi hujjat hisoblanadi.

2.2. Buyurtmachi hisob raqamiga zakalat pulining to'liq summasi kelib tushmagan bo'lsa, Talabgorning zakalat pulini kiritish bo'yicha majburiyati ijro etilmagan hisoblanadi.

2.3. Talabgor Buyurtmachining hisob raqamiga zakalat puli sifatida kelib tushuvchi pul mablag'larini ixtiyor etishga haqli emas, ya'ni ushbu mablag'larni har qanday boshqa bank hisob raqamiga o'tkazib berilishini undan talab qilishga haqli emas.

2.4. Zakalat puli summasiga foizlar qo'shib hisoblanmaydi.

**3. Pul mablag'larini (zakalat pulini) qaytarish**

3.1. Talabgor pul mablag'larini (zakalat pulini) qaytarish quyidagi holatlarda amalga oshiriladi:

- agar u tanlov savdosida ishtirok etishga kiritilmagan bo'lsa;
- agar u o'z taklifini o'rnatilgan tartibda qaytarib olsa;
- agar u tanlov savdosida g'olib deb topilmasa;
- tanlov savdosi bo'lib o'tmadi deb topilganda.

Buyurtmachi zakalat puli summasini o'n bir bank ish kuni mobaynida tanlov savdosini yakunlash haqidagi bayonnomaning imzolanganidan boshlab o'tkazish majburiyatini oladi.

3.2. Bank xizmati xarajatlari talabgor hisobidan ushlab qolinadi.

3.3. Tanlov savdosi G'olib tomonidan kiritilgan zakalat puli summasi shartnoma shartlarining bajarilishi yakuniga qadar, ushbu tanlov G'olib tomonidan bunday shartnoma shartlarini bajarishiga kafolat sifatida tanlov Buyurtmachisi ixtiyorida turadi.

**4. Kelishuv bo'yicha tomonlarning majburiyatları**

4.1. Tanlov savdosining g'olib deb topilgan Talabgor agar, Kontrakt-sharnomasini tuzishdan bosh tortsa, shuningdek Kontrakt-shartnoma tuzilgandan keyin Kotrakt-shartnoma majburiyatlarini bajarmasa, zakalat puli summasi unga qaytarilmaydi, bu Talabgora nisbatan O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 259, 312, 380 moddalariga ko'ra qo'llaniluvchi javobgarlik choralar hisoblanadi.

4.2. Buyurtmachi tomonidan Talabgora ushbu Kelishuvda ko'zda tutilgan zakalat summasini qaytarib berishi kechiktirilsa, Buyurtmachi zakalat puli summasidan 0,5 foiz miqdorida, biroq zakalat puli summasidan 50% dan oshmagan

holda kechiktirilgan har bir kun uchun Talabgorga badal puli to'laydi.

#### **5. Kelishuvning amal qilish muddati**

5.1. Ushbu Kelishuv Tomonlar o'rtasida imzolangan daqiqadan boshlab kuchga kiradi va o'zining amal qilinishini Tomonlar o'rtasidagi o'z majburiyatlarining bajarilganligi yoki ushbu Kelishuvda ko'zda tutilgan boshqa bir asosli sabablarga ko'ra to'xtatadi.

5.2. Ushbu Kelishuv bo'yicha Tomonlar o'rtasidagi o'z huquqlari va majburiyatlarini amalgalash oshirish jarayonida yuzaga keluvchi huquqiy munosabatlarni O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlari bilan tartibga solinadi.

5.3. Barcha bahs-munozaralar va qarama-qarshiliklar Tomonlar o'rtasida muzokara yo'li bilan bartaraf etiladi. Bahs-munozaralar va qarama-qarshiliklar muzokara yo'li bilan bartaraf etilishining iloji bo'lmaganda, ularni hal qilish uchun iqtisodiy sudiga beriladi.

5.4. Ushbu Kelishuv 2 (ikki) nusxada tuzildi: Tomonlarning har biri uchun bittadan bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan nusxada.

#### **6. Tomonlarning rekvizitlari**

<b>«Talabgor»</b>	<b>«Buyurtmachi»</b>
Manzil: _____ h/r _____ _____ _____ _____	Manzil: _____ h/r _____ _____ _____
/ _____ /	/ _____ /

ILOVALARNING BARCHA BETLARI TOPSHIRILAYOTGANDA TANLOV SAVDOSI QATNASHCHILARI  
TOMONIDAN IMZOLANGAN VA MUHRLANGAN BO'LISHI SHART.

№ \_\_\_\_ -lot

**Mahsulotning texnik tavsif jadvali**

Ishtirokchi: \_\_\_\_\_

<b>Nº</b>	<b>Tovarlar (xizmatlar, ishlar)</b>	<b>Texnik topshiriq talablariga muvofiq ko'rsatkich</b>	<b>Ishtirokchining taklifiga binoan ko'rsatkich</b>	<b>Izoh (mos / mos emas)</b>
<b>1</b>	<b>2</b>	<b>3</b>	<b>4</b>	<b>5</b>
<i>Tanlov nom va Lot ragami</i>				
1				
2				

Qatnashchi nomi: **[Qatnashchining to'liq nomini ko'rsating]**Taklifga imzo chekuvchining lavozimi: **[Taklifga imzo qo'yan shaxsning lavozimini ko'rsating]**Imzo: **[Yuqorida nomi va lavozimi ko'rsatilgan shaxs imzosini qo'ying]**Ushbu taklif **[Qatnashchining to'liq nomini ko'rsating]** ko'rsatmasi va nomidan tegishli vakolat bilan imzolandi.Sana: **[taklifga imzo qo'yilgan sanani ko'rsating]**

**ILOVALARNING BARCHA BETLARI TOPSHIRILAYOTGANDA TANLOV SAVDOSI QATNASHCHILARI  
TOMONIDAN IMZOLANGAN VA MUHRLANGAN BO'LISHI SHART.**

№ \_\_\_\_ -lot

**Mahsulotni yetkazib berish, xizmat ko'rsatish**

Mahsulotlarni yetkazib berish, xizmat ko'rsatish Xaridor va Mahsulot yetkazib beruvchi o'rtaсидаги шартнома имзоландан keyin boshlanishi zarur.

Yetkazib berish (bajarish) muddatidan kechikib etkazib berilgan mahsulotlar (ko'rsatilgan xizmatlar) qabul qilinmaydi va ular uchun to'lovlar amalga oshirilmaydi.

<b>t/r</b>	<b>Mahsulot (xizmat) nomi</b>	<b>Yetkazib berish muddati (davom etishi)</b>	<b>Manzil</b>	<b>Mahsulotlarni yetkazib berish, xizmat ko'rsatish oxirgi muddati</b>

**ILOVALARNING BARCHA BETLARI TOPSHIRILAYOTGANDA TANLOV SAVDOSI QATNASHCHILARI  
TOMONIDAN IMZOLANGAN VA MUHRLANGAN BO'LISHI SHART.**

№ \_\_\_\_ -lot

## TANLOV TAKLIFI

### KIMGA: Xarid komissiyasiga

Savdo uchun olinishi (xizmat ko'rsatish) ushbu bilan tasdiqlanuvchi hujjatlarni o'rganib chiqib, biz quyida imzo chekuvchilar, ushbu Tanlov taklifining bir qismi hisoblanuvchi va taklif etilayotgan narx-navo jadvali bilan tasdiqlanuvchi \_\_\_\_\_

summadagi

(Tanlov taklifining umumiyligi yozma va raqamlarda)

ko'rsatilgan hujjatlar asosida etkazib berishni (xizmat ko'rsatishni) amalga oshirishni taklif etamiz.

Bizning Tanlov taklifimiz qabul qilingan taqdirda, tovar va xizmatlar uchun Buyurtmada keltirilgan etkazib berish (xizmat ko'rsatish) grafigi asosida tovarlarni etkazib berish (xizmatlarni ko'rsatish) majburiyatini olamiz.

Bizning \_\_\_\_\_ (\_\_\_\_\_) so'm zakalat pulimiz  
Shartnoma shartlarining bajarilish yakuniga qadar va biz tomonimizdan shu kabi Shartnoma shartlarining bajarilishiga kafolat sifatida Tanlov Buyurtmachisi ixtiyorida turadi.

Biz tanlov takliflarining ochilgan kuni sifatida o'rnatilgan (belgilangan) sanadan boshlab 30 (o'ttiz) bank kuni davomida ushbu tanlov takliflari qoidalariga rioya etishga rozilik bildiramiz. Ushbu tanlov taklifi biz uchun majburiy (haqiqiy) bo'lib qoladi va ko'rsatilgan muddat o'tgunga qadar ixtiyoriy vaqtida qabul qilinishi mumkin.

Rasmiy Shartnomani tayyorlab va uni rasmiylashtirgunga qadar ushbu tanlov taklifi, uning qabul qilinishidagi Sizning yozma tasdig'ingiz va Shartnomaga ega bo'lganligingiz haqidagi Sizning bildirish xatingiz bilan birligida bizning o'rtamizdagi haqiqiy (majburiy) Shartnoma rolini bajaradi.

Biz albatta inobatga olamizki (tushunamizki), Siz o'ta kichik hisob qiymatiga ega bo'lgan tanlov taklifini yoki umuman Siz olgan takliflardan qaysi birinidir qabul qilishga majbur emassiz.

Biz har oyning ikkinchi sanasida, butun etkazib berish (xizmat ko'rsatish) davri mobaynida tanlov savdosi shartlarining ijro etilishi haqidagi axborot-ma'lumotlarni taqdim etib borish majburiyatini olamiz.

20 y. \_\_\_\_\_ oyining \_\_\_\_\_ sanasi bilan belgilandi.

[imzo]

[lavozimi]

(savdo ishtirokchisining nomlanishi)

Qatnashchining nomidan va topshirig'i bo'yicha Tanlov taklifini imzolash vakolatiga egalik qiluvchi

**ILOVALARNING BARCHA BETLARI TOPSHIRILAYOTGANDA TANLOV SAVDOSI QATNASHCHILARI  
TOMONIDAN IMZOLANGAN VA MUHRLANGAN BO'LISHI SHART.**

№ \_\_\_\_ -lot

**Qatnashchi taklif etgan mahsulotning (xizmatlarning, ishlarning) narx jadvali**

Ishtirokchi: \_\_\_\_\_

t/r	Mahsulot (xizmat) nomi	O'Ichov birligi	Soni	Bir donasining narxi	Umumiy narxi
1.					
2.					

**Yetkazib berilayotgan mahsulot umumiy qiymati jami:**

so'mni tashkil etadi.

**Izoh:** mahsulotning (xizmatning, ishning) bir donasi va umumiy narxlari o'rtaida farqlanish aniqlanilsa, bunday holda bir dona mahsulotning narxiga qaraladi.

Qatnashchi nomi: **[Qatnashchining to'liq nomini ko'rsating]**

Taklifga imzo chekuvchining lavozimi: **[Taklifga imzo qo'ygan shaxsnинг lavozimini ko'rsating]**

Imzo: **[Yuqorida nomi va lavozimi ko'rsatilgan shaxs imzosini qo'ying]**

Ushbu taklif **[Qatnashchining to'liq nomini ko'rsating]** ko'rsatmasi va nomidan tegishli vakolat bilan imzolandi.

Sana: **[taklifga imzo qo'yilgan sanani ko'rsating]**

ILOVALARNING BARCHA BETLARI TOPSHIRILAYOTGANDA TANLOV SAVDOSI QATNASHCHILARI  
TOMONIDAN IMZOLANGAN VA MUHRLANGAN BO'LISHI SHART.

### **III BOB. ETKAZIB BERILADIGAN MAHSULOTLARGA TEXNIK TALABLAR.**

1.1. Navoiy shahar Navoiy ko'chasi bo'ylab adliya boshqarmasiga ma'muriy bino qurilish ob'ekti loyiha-smeta hujjatlariga belgilangan me'yoriy hujatlarga muvofiq qo'shimcha va o'zgartirish kiritish

#### **IV BOB. TIJORAT QISMI**

Tijorat takliflari bahosi va uni belgilash tartibi

- 1.1. Baholar jadvalida ko'rsatilgan baho tanlov taklifi bahosi hisoblanadi.
- 1.2. Mahsulot (xizmai, ish) bahosi (taklif)ga jumladan tanlov, soliqlar, budget va nobudjet jamg'armalarga majburiy to'lovlар bo'yicha xarajatlar qо'shilishi lozim.
- 1.3. Ishtirokchi tomonidan o'rnatilgan baholar yetkazib berishni (xizmat ko'rsatishni, ish bajarishni) to'liq amalga oshirish davriga belgilanib, o'zgartirilishi mumkin emas.
- 1.4. Qaysi bosqichda bo'lmasin, bahoni ko'tarishga yo'naltirilgan tanlov takliflari tanlov savdolari talablariga javob bermaydigan hisoblanib, Xarid komissiyasi tomonidan ko'rib chiqilmaydi.

#### **2. Tanlov valyutasi**

- 2.1. Tanlov takliflari O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasi so'mda taqdim etiladi.

#### **3. Yetkazib berish shartlari va muddati**

- 3.1. Tanlovga qo'yilgan tovarning (xizmatning, ishning) narxi **25 000 000 so'm**, qo'shilgan qiymat solig'i bilan.
- 3.2. Mahsulotlarni etkazib berish, xizmatlarni ko'rsatish va ishlarni bajarish muddati **7 kun** deb belgilanadi.
- 3.3. Oldindan to'lov amalga oshirilgan kundan boshlab 7 kun ichida yetkazib beriladi.

#### **4. Moliyalashtirish shartlari va jadvali**

- 4.1 Avvaldan to'lov O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasida umumiy shartnoma qiymatining 30 %, qolgan 70 % shartnoma shartlariga muvofiq amalga oshiriladi.

#### **5. Shartnomani moliyalashtirish manbai**

- 5.1. Navoiy viloyat adliya boshqarmasi budgetdan tashqari mablag'lari hisobidan.

Mahsulotni yetkazib berish (xizmat ko'rsatish, ish bajarish) bo'yicha tuzilgan Shartnoma qonunchilik hujjatlari – O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, «**Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy – huquqiy bazasi to'g'risida**»gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga mos bo'lishi lozim.

## V BOB. SHARTNOMA SHAKLI

**Navoiy shahar Navoiy ko'chasi bo'ylab adliya boshqarmasiga ma'muriy bino qurilish ob'ekti loyiha-smeta hujjatlariga qo'shimcha va o'zgartirish kiritish to'g'risidagi \_\_\_\_\_ -sonli SHARTNOMA**

Navoiy shahri

2021 y «\_\_\_\_\_».

Navoiy viloyat adliya boshqarmasi nomidan Nizom asosida ish yurituvchi boshqarma boshlig'i Sarabekov A'zamjon Abdukadirovich, bir tarafdan (bundan buyon matnda "Buyurtmachi" deb yuritiladi) hamda nomidan ustav asosida ish yurituvchi ikkinchi tarafdan (bundan buyon matnda "Bajaruvchi" deb yuritiladi), har biri alohida "Taraflar" va birgalikda "Taraflar" deb nomlanib, quyidagilar haqida mazkur shartnomani tuzdik:

### I. SHARTNOMA PREDMETI

1.1. Ushbu shartnomaning predmeti Navoiy shahar Navoiy ko'chasi bo'ylab adliya boshqarmasiga ma'muriy bino qurilish ob'ekti loyiha-smeta hujjatlariga qo'shimcha va o'zgartirish kiritish hisoblanadi.

1.2. Ishlarning to'liq hajmi ushbu shartnomaning 1-ilosida ko'rsatilgan va shartnomaning ajralmas qismi hisoblanadigan Ishlarni bajarishning kalendar rejasiga muvofiq bajariladi.

1.3. Ishlarni bajarish muddati ushbu shartnomaning 3-bo'limiga muvofiq Bajaruvchi tomonidan Buyurtmachiga oldindan to'lov olingan paytdan boshlab 7 kunni tashkil qiladi.

### II. Taraflarning huquq va majburiyatları

#### 2.1. Bajaruvchining majburiyatları:

2.1.1. Ushbu shartnoma doirasida Ishlarni bajarishning kalendar rejasiga muvofiq barcha ishlarni to'liq hajmda va belgilangan muddatlarda bajarish.

Har bir bosqich bo'yicha ishlarni Taraflar tomonidan Ishlarni topshirish-qabul qilish dalolatnomasi imzolanganidan keyin bajarilgan hisoblanadi.

2.1.2. Shartnoma bo'yicha ishlarni O'zbekiston Respublikasining amaldagi normativ-huquqiy hujjatlariga to'liq muvofiq holda bajarilishini ta'minlash.

2.1.3. Bajarilgan ishlarda aniqlangan barcha kamchiliklar va xatolarni Buyurtmachi bilan kelishilgan muddatda o'z hisobidan bartaraf etish.

2.1.4. Ishlar yakuni bo'yicha korrektirovka qilingan loyiha-smeta hujjatlarini Buyurtmachiga taqdim etish.

Loyiha-smeta hujjatlari "Shaharsozlik hujjatlari ekspertizasi" DUK tomonidan davlat ekspertizasidan o'tkazilib, tomonlar qabul qilish to'g'risidagi dalolatnomasi imzolaganidan keyin tugallangan hisoblanadi.

#### 2.2. Bajaruvchining huquqlari:

2.2.1. Ishlarni Buyurtmachi bilan kelishilgan holda muddatidan ilgari bajarish.

2.2.2. Ushbu shartnoma bo'yicha ishlarni (yoki ularning qismlarini) bajarish uchun mutaxassislar va ekspertlarni hamda boshqa tashkilotlarni jalg qilish;

#### 2.3. Buyurtmachining majburiyatları:

2.3.1. Bajaruvchi tomonidan loyiha-smeta hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish maqsadida qurilish ob'ektini ko'zdan kechirish uchun sharoit yaratib berish, Bajaruvchi talabiga ko'ra ishlarni amalga oshirish uchun kerakli birlamchi ma'lumotlar hamda boshqa zarur materiallarni o'z vaqtida olinishiga o'z vakolati doirasida ko'maklashish.

2.3.2. Zaruratga ko'ra, ushbu shartnoma bo'yicha ishlab chiqilayotgan hujjatlarni o'zining tarkibiy tuzilmalarida va tegishli vazirlik hamda idoralarda kelishilishini ta'minlash.

2.3.3. Ushbu shartnomaning 4.1-bandida ko'rsatilgan hisobotga oid Bajaruvchi tomonidan taqdim etilgan hujjatlarni o'z vaqtida ko'rib chiqish.

2.3.4. Ishlarni bajarish muddatlari muvofiqlashtirilishini, bajariladigan ishlarni bo'yicha oraliq va yakuniy natijalarga erishilishini nazorat qilinishini ta'minlash.

#### 2.4 Buyurtmachining huquqlari:

2.4.1. Shartnoma bo'yicha bajarilayotgan ishlarni jarayonini va sifatini doimiy asosda tekshirish.

### III. Shartnomaning umumiyligi bahosi va hisob-kitob qilish tartibi

3.1. Ushbu shartnomaning umumiyligi bahosi Xarid komissiyasi bayonnomasiga muvofiq QQS bilan \_\_\_\_\_ (\_\_\_\_\_ ) so'mni tashkil qiladi.

3.1.1. Buyurtmachi ushbu shartnoma kuchga kirgan paytdan boshlab 5 (besh) bank kuni ichida Bajaruvchining hisob raqamiga shartnoma umumiyligi bahosining 30 %, ya'ni QQS bilan \_\_\_\_\_ (\_\_\_\_\_ ) so'm miqdorida oldindan to'lovlarini o'tkazib beradi.

3.2. Buyurtmachi Taraflar tomonidan hisobvara-faktura va ishlarni topshirish-qabul qilish dalolatnomasi imzolangan paytdan boshlab Bajaruvchining hisob raqamiga bajarilgan ishlarning har bir bosqichi bo'yicha Ishlarni bajarishning kalendar rejasiga muvofiq oldindan o'tkazilgan to'lovlar summasini chegirgan holda 10 (o'n) bank kuni ichida o'tkazib beradi.

### IV. Ishlarni topshirish va qabul qilish tartibi

4.1. Har bir bosqich bo'yicha ishlarni yakunlanishi bilan Bajaruvchi bir ish kuni ichida Buyurtmachiga bajarilgan ishlarni dalolatnomalarini, hisobvara-fakturalarni va bajarilgan ishlarni haqidagi hisobotlarni taqdim etadi.

4.2. Buyurtmachi ushbu shartnomaning 4.1-bandida ko'rsatilgan hujjatlarni olgan kundan boshlab 5 (besh) kalendar kun ichida Bajaruvchiga imzolangan bajarilgan ishlarni dalolatnomalari va hisobvara-fakturalarni yuborishi, Buyurtmachi esa Bajaruvchi tomonidan bajarilgan ishlarni qabul qilishdan bosh tortganda Buyurtmachi Bajaruvchiga 10 (o'n) kalendar kun ichida bosh tortish sabablarini asoslantirgan holda javob yuborishi lozim.

4.3. Bajarilgan ishlarda kamchiliklar aniqlanganda Bajaruvchi aniqlangan kamchiliklarni va/yoki nomuvofiqliklarni Buyurtmachi bilan kelishilgan muddatlarda bartaraf etish yoxud Buyurtmachi bilan kelishilgan holda Buyurtmachining hisob raqamiga lozim darajada bajarilmagan (sifatsiz yoki yaroqsiz) deb topilgan ishlarni qismi uchun to'langan pul mablag'lari summasini tegishli organlarning salbiy xulosasi olingan kundan boshlab 5 (besh) bank kuni ichida qaytarish majburiyatini oladi

#### V. Maxfiylik

5.1. Oshkor etuvchi Taraf – oluvchi Tarafga maxfiy ma'lumotlarni oshkor etuvchi Buyurtmachi.

5.2. Oluvchi Taraf – boshqa Tarafdan – Buyurtmachidan maxfiy ma'lumotni oluvchi Bajaruvchi.

5.3. Taraflar ushbu shartnoma shartlari va mazkur shartnomani tuzish, bajarish va bekor qilish jarayonida Taraflar o'tasida ayriboshlangan har qanday ma'lumot ushbu shartnomaning amal qilishi muddatida va mazkur shartnoma bekor qilinganidan keyin 3 (uch) yil davomida (agar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi boshqacha muddat belgilangan bo'lmasa) maxfiy ma'lumot bo'lib hisoblanishi haqida kelishib oldilar.

Maxfiy ma'lumotni oluvchi Taraf (Bajaruvchi) bunday ma'lumotni oshkor qiluvchi Taraf (Buyurtmachi)ning oldindan yozma rozilagini olmasdan ushbu shartnoma shartlari va mazkur shartnomani tuzish, bajarish va bekor qilish jarayonida oshkor qiluvchi Tarafdan olingan har qanday ma'lumotni oshkor qilmaslik majburiyatini oladi. Har qanday maxfiy ma'lumot uchinchi shaxsga bunday rozilik bilan oshkor etilganida, bunday ma'lumotni oluvchi va uchinchi shaxsga oshkor qiluvchi Taraf uchinchi shaxs bunday maxfiy ma'lumotni shartnomaning ushbu bo'limida nazarda tutilgan o'xshash shartlarda maxfiyligini saqlash majburiyatini olishini kafolatlashi shart.

#### VI. Shartnomani o'zgartirish va bekor qilish tartibi

6.1. Asosida ushbu shartnoma tuzilgan shartlar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi muvofiq Taraflar o'tasidagi kelishuvga ko'ra o'zgartirilishi mumkin.

6.2. Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarishdan bir tomonlama bosh tortish va ushbu shartnoma shartlarini bir tomonlama o'zgartirishga yo'li qo'yilmaydi.

6.3. Ushbu shartnoma Taraflar kelishuviga ko'ra o'zgartirilishi yoki bekor qilinishi mumkin. Shartnomani o'zgartirish yoki bekor qilish yozma shaklda rasmiylashtiriladi va Taraflar tomonidan imzolanadi.

6.4. Shartnoma Taraflardan birining talabiga ko'ra boshqa Taraf shartnomani jiddiy ravishda buzgan taqdirda sud qaroriga asosan o'zgartirilishi yoki bekor qilinishi mumkin. Taraflardan birining shartnomani buzishi ikkinchi tarafga u shartnoma tuzishda umid qilishga haqli bo'lgan narsadan ko'p darajada mahrum bo'ladigan qilib zarar etkazishi shartnomani jiddiy buzish hisoblanadi.

6.5. Bir taraf shartnomani o'zgartirish yoki bekor qilish haqidagi taklifa ikkinchi tarafdan rad javobi olganidan keyingina shartnomani o'zgartirish yoki bekor qilish haqidagi talabni suduga taqdim etishi mumkin.

#### VII. Taraflarning javobgarligi

7.1. Ishlarni bajarish kechiktirilgan yoki bajarilmagan taqdirda, Bajaruvchi Buyurtmachiga har bir kechiktirilgan kun uchun majburiyatning bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, ammo penyaning umumiyligi miqdori bajarilmagan ishlarni bahosining 50 foizidan oshmasligi kerak. Penyani to'lash shartnoma majburiyatlarini buzgan tarafni shartnomani to'g'ri bajarishdan va ishlarni kechiktirish yoki bajarmaslik oqibatida etkazilgan zararni qoplashdan ozod qilmaydi.

7.2. Bajarilgan ishlarni uchun to'lovni o'z vaqtida to'lamagan taqdirda, Buyurtmachi Bajaruvchiga har bir kechiktirilgan kun uchun muddati o'tgan to'lov summasining 0,4 foizi miqdorida, lekin muddati o'tgan to'lov miqdorining 50 foizidan ko'p bo'limgan miqdorda penya to'laydi.

7.3. Taraflarning ushbu shartnomada ko'rsatilmagan javobgarlik choralar O'zbekiston Respublikasining "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi qonuniga muvofiq qo'llaniladi.

7.4. Neustoykani to'lash Taraflarni ushbu shartnoma bo'yicha zimmasiga yuklangan majburiyatlarni bajarishdan ozod qilmaydi.

#### VIII. Nizolarni hal qilish tartibi

8.1. Tomonlar o'tasida ushbu shartnomadan kelib chiqadigan nizolar tomonlar o'tasida muzokaralar yo'li bilan hal qilinadi.

8.2. Tomonlar o'tasidagi muzokaralar yo'li bilan hal qilinmagan nizolar Karmana tumanlararo iqtisodiy sudida hal qilinadi.

#### IX. Fors-major holatlari

9.1. Taraflar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarni qisman yoki to'liq bajarilmaganligi uchun, agar majburiyatlarni bajarmaslik yengib bo'lmas kuch, ya'ni ushbu shartnoma tuzilganidan keyin kelib chiqqan va Taraf oldindan ko'ra bilman va oqilona choralar bilan bartaraf etolmaydigan favqulodda holatlari bilan bog'liq holatlari oqibatida kelib chiqqan bo'lsa, javobgarlikdan ozod qilinadi. Yengib bo'lmas kuch bilan bog'liq holatlari qatoriga yong'in, suv toshqini, yer silkinishi, boshqa tabiiy ofatlar, davlat hokimiyyati va boshqaruvi organlarining hujjatlari, shuningdek, ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlar bajarilishiga to'sqinlik qiluvchi qonunchilikdagi o'zgarishlar kiradi. Yengib bo'lmas kuch bilan bog'liq holatlari belgilangan tartibda tasdiqlanadi.

9.2. Yengib bo'lmas kuch bilan bog'liq holatlari kelib chiqqanda uning ta'siriga tushgan Taraf birinchi imkoniyat bo'lishi bilan ushbu holatlari haqida boshqa Tarafni zudlik bilan yozma shaklda xabardor qilishi shart. Xabarnoma yengib bo'lmas kuch bilan bog'liq holatlari tavsifi va Taraf tomonidan ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarini bajarish imkoniyatiga ta'sirini baholashni hamda bunday majburiyatlarni bajarishning taxminiy muddatlarini o'z ichiga olishi zarur. Taraflar tomonidan ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddati ushbu majburiyatlarni bajarishga to'sqinlik qiluvchi yengib bo'lmas kuch bilan bog'liq holatlari va ularning oqibati amal qiladigan muddatga uzaytiriladi.

9.3. Yengib bo'lmas kuch bilan bog'liq holatlari tugashi bilan tegishli Taraf ushbu majburiyatlarni bajarishga to'sqinlik qiluvchi yengib bo'lmas kuch bilan bog'liq holatlari va ularning oqibati tugagan kundan boshlab uch ish kunidan

kechiktirmasdan boshqa Tarafni yozma shaklda xabardor qilishi shart. Xabarnomada ushbu shartnomasi bo'yicha majburiyatlarini bajarish mo'ljallanayotgan muddat ko'rsatilgan bo'lishi shart.

9.4. Yengib bo'lmas kuch bilan bog'liq holatlar va ularning oqibati oltiy oy davomida ketma-ket ro'y bersa, har qanday Taraf boshqa Tarafni shartnomani bekor qilinishi mo'ljallanayotgan muddatdan o'n ish kunidan avval ogohlantirib ushbu shartnomani bir tomonlama bekor qilishi mumkin. Taraflar yengib bo'lmas kuch bilan bog'liq holatlar tufayli shartnomani bekor qilish natijasida ko'rishi mumkin bo'lgan har qanday zararni kamaytirish bo'yicha barcha oqilona choralarini ko'radilar.

## X. KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH

10.1. Ushbu shartnomasi bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarayotganda Taraflar, ularning sheriklari, ishchilari yoki vositachilari har qanday noqonuniy ustunliklarga yoki boshqa noqonuniy maqsadlarga erishish uchun bevosita yoki bilvosita pul mablag'lari yoki qimmatliklarni to'lashni amalga oshirmaydi.

10.2. Ushbu shartnomasi majburiyatlarini bajarayotganda Taraflar, ularning sheriklari, ishchilari yoki vositachilari pora berish/olish, tijoriy pora olish, shuningdek amaldagi qonunchilik va xalqaro hujjatlarning talablarini buzadigan harakatlarni amalga oshirmaydilar. Jinoiy yo'l bilan topilgan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashishga oid xalqaro hujjatlarni amalga oshirmaydi.

10.3. Ushbu shartnomasi Taraflarining har biri boshqa Tarafning xodimlarini har qanday tarzda rag'batlantirishdan, shu jumladan pul mablag'lari, sovg'alar berish, ularga ish (xizmatlar)ni bepul bajarishi va ushbu bandda ko'rsatilmagan boshqa usullar bilan xodimning rag'batlantiruvchi tomon foydasiga har qanday harakatlarni sodir etishdan bosh tortadi.

Xodimning uni rag'batlantiruvchi tomon foydasiga amalga oshirgan harakatlari deganda quyidagilar tushuniladi:

- boshqa kontragentlar bilan taqqoslaganda asossiz ustunliklarni taqdim etish;
- har qanday kafolatlar bilan ta'minlash;
- amaldagi tartib-taomillarni tezlashtirish;

- xodim tomonidan o'z vazifalari doirasida amalga oshiriladigan, ammo Tomonlar o'tasidagi munosabatlarning shaffofligi va ochiqligi tamoyillariga zid bo'lgan boshqa harakatlar.

10.4. Agar Taraflardan biri mazkur shartnomaning 2-ilovasida keltirilgan korrupsiyaga qarshi kurashish shartlarini buzgan yoki buzishi mumkin deb gumon qilsa, ikkinchi Tarafni yozma ravishda xabardor qilishga majbur. Yozma xabarnomadan so'ng, tegishli Taraf ushbu Shartnomasi bo'yicha majburiyatlarining bajarilishini buzilish sodir bo'Imaganligi yoki sodir bo'lmasligi tasdiqlangunga qadar to'xtatib turishga haqli. Ushbu tasdiq yozma xabarnoma yuborilgan kundan boshlab 5 (besh) ish kuni ichida yuborilishi kerak.

10.5. Yozma xabarnomada Taraf kontragent, uning sheriklari, ishchilari yoki vositachilari tomonidan ushbu shartlar va qoidalarning buzilganligi yoki buzilishi mumkinligini ishonchli tarzda tasdiqlaydigan yoki asoslashi mumkin bo'lgan faktlarga tayanishi yoki tegishli materiallarni taqdim etishga majbur, ya'ni pora olish/berish, tijoriy pora olish, shuningdek amaldagi qonunchilik va jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurash bo'yicha xalqaro hujjatlarni amalga oshirilishi lozim.

10.6. Shartnomaning taraflari korrupsiyaning oldini olish choralarini ko'rish tartib-taomillarini tan oladi va ularga rioya etilishini nazorat qiladi. Bunda Taraflar korrupsiyaviy faoliyat bilan shug'ullanishi mumkin bo'lgan kontragentlar bilan ishbilarmonlik munosabatlari xavfini minimallashtirish, shuningdek, korrupsiyaning oldini olish maqsadida bir-biriga o'zar yordam berish uchun oqilona harakatlarni amalga oshiradilar. Shuningdek, Taraflar korrupsiyaviy faoliyatga Taraflarning ishtiroti xavfini oldini olish maqsadida tekshiruvlar o'tkazish tartib-taomillarini amalga oshirilishini ta'minlaydilar.

10.7. Taraflar o'zlarining sodir etilishi mumkin bo'lgan noqonuniy xatti-harakatlari va ushbu shartnomaning korrupsiyaga qarshi kurashish shartlarining buzilishi kontragentning ishonchligi reytingini pasaytirishidan tortib ushbu shartnomaning bekor qilinishingacha bo'lgan noxush oqibatlarga olib kelishi mumkinligini tan oladi.

10.8. Taraflar maxfiylik tamoyillariga rioya qilgan holda ushbu shartnomani bajarish doirasida keltirilgan faktlar bo'yicha tegishli tartib-taomillar amalga oshirilishini va amaliy qiyinchiliklarni bartaraf etish va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nizoli vaziyatlarning oldini olish bo'yicha samarali choralarini qo'llashni kafolatlaydilar.

10.9. Taraflar ushbu shartnomaning korrupsiyaga qarshi kurashish shartlarini bajarish bo'yicha to'liq maxfiylikni, shuningdek, talablar buzilganligi faktlari to'g'risida xabar bergan Taraf uchun ham, shuningdek, xabar bergan Tarafning xodimlari uchun ham salbiy oqibatlar keltirmasligini kafolatlaydilar.

## XI. Yakunlovchi shartlar

11.1. Ushbu shartnomasi bilan tartibga solinmagan barcha masalalar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq tartibga solinadi.

11.2. Ushbu shartnomasi Taraflar tomonidan imzolanganidan keyin kuchga kiradi va 2021 yil 31 dekabrgacha hamda Taraflar tomonidan majburiyatlar to'liq bajarilgunigacha amal qiladi.

11.3. Ushbu shartnomasi har bir Taraf uchun ikki nusxada tuzildi. Barcha nusxalar aynan bo'lib, bir xil yuridik kuchga ega.

## XII. Taraflarning manzillari va bank rekvizitlari

Bajaruvchi

Buyurtmachi

Manzil:

ko'cha:

Tel./faks:

H/r:

Bank:

**MFO**  
**STIR:**  
**OKED:**  
**OKPO:**

---

**A. Sarabekov**

2021 yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_ dagi  
—sonli shartnomaga  
1-ilova

**Navoiy shahar Navoiy ko'chasi bo'ylab adliya boshqarmasiga ma'muriy bino qurilish ob'ekti loyiha-smeta hujjatlariga  
qo'shimcha va o'zgartirish kiritish bo'yicha ishlarni bajarishning**  
**KALENDAR REJASI**

T/r	Ishlar nomi	Ishlar bosqichlari	Ishlarni bajarish muddatlari, (ish kunlari)	Hisobot materiallari shakli
1.	<b>Navoiy shahar Navoiy ko'chasi bo'ylab adliya boshqarmasiga ma'muriy bino qurilish ob'ekti loyiha-smeta hujjatlariga qo'shimcha va o'zgartirish kiritish</b>	I bosqich	Buyurtmachi tomonidan oldindan to'lov amalga oshirilgandan <b>so'ng</b> <b>7 kun</b>	hisobvaraq-faktura, bajarilgan ishlar dalolatnomasi, korrektirovka qilingan loyiha- smeta hujjatlari

**Bajaruvchi**

**Buyurtmachi**

**Manzil:**

**ko'cha:**

**Tel./faks:**

**H/r:**

**Bank:**

**MFO**

**STIR:**

**OKED:**

**OKPO:**

\_\_\_\_\_  
**A. Sarabekov**

**Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha  
ASOSIY SHARTLAR**

1. Taraflar shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarayotganda O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlarining talablariga zid keladigan har qanday harakatlarni amalga oshirmaydilar, shu jumladan, pora berishni taklif qilmaydi, va'da bermaydi, tovlamachilik qilmaydi, pora sifatida pul to'lamaydi, bevosita yoki bilvosita pora olishga rozilik bermaydi yoki pora, ya'ni O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi xodimi o'z xizmat majburiyatlaridan foydalangan holda pora bergen shaxsnинг manfaatlarini ko'zlab muayyan harakatlarni sodir etishi yoki sodir etmasligi shartligi yoki mumkinligi uchun moddiy qimmatliklarni yoki mulkiy naf olmaydi. Taraflar ushbu harakatlarga yo'l qo'ymaslik bo'yicha choralar ko'rinishiga kafolat beradi.

2. Agar shartnoma bo'yicha bir Taraf Navoiy viloyat adliya boshqarmasi xodimining axloqqa to'g'ri kelmaydigan va ushbu shartnoma yoki O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga zid keladigan hatti-harakatlariga, shu jumladan, korrupsiyaga oid huquqbuzarlik sodir etishga majburlashdan iborat bo'lgan faktlarga duch kelsa, bu haqda quyidagi aloqa kanallaridan biri orqali xabardor qilishi kerak:

"1008" ishonch telefoni;

Telegram-kanali («@anticorbot»);

Adliya vazirligining rasmiy veb-saytida joylashtirilgan shakl yoki elektron pochta.

Izoh: Shartnomadagi ushbu shartlar "yarim qora" shriftda bayon etiladi.

Bajaruvchi:

\_\_\_\_\_ / \_\_\_\_\_ / \_\_\_\_\_

Buyurtmachi:

\_\_\_\_\_ / \_\_\_\_\_ / \_\_\_\_\_

[Ishtirokchining nomi va pochta manzili]

Navoiy viloyat adliya boshqarmasi

210100, Navoiy sh., Navoiy ko‘chasi

Xarid komissiyasiga

20\_\_ yil "\_\_\_" \_\_\_\_ soat 17:00 gacha (mahalliy vaqt bilan) OCHILMASIN

Navoiy shahar Navoiy ko‘chasi bo‘ylab adliya boshqarmasiga ma’muriy bino qurilish ob’ekti loyiha-smeta hujjatlariga qo‘srimcha va o‘zgartirish kiritishni amalga oshiruvchi tashkilotni aniqlash bo‘yicha tanlovdha ishtirok etish.

Taklifni kelib tushgan sanasi "\_\_\_" \_\_\_\_ 20\_\_ y.

Vaqt \_\_\_\_ soat. \_\_\_\_ daqiqa

\* Tijorat taklifidan konvertlarni qabul qilish Xarid komissiyasi kotibi tomonidan amalga oshiriladi:

Qulmurodov Afzal Akbarovich;

Tel.: (79) 220-79-29

Taklifli konvertni topshirishda sizni yoningizda shaxsiy guvohnomangiz bo‘lishi kerak.